

**ABDULLA QAHHOR VA JEK LONDON HIKOYALARIDAGI BADIY O'XSHASHLIK
VA FARQLI JIHLARI****Tog'ayeva Dilnigora Mavlon qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21395039>

Annotatsiya. Ushbu maqolada obraz yaratishda ikkita turli millatning o'tkir qalam sohiblari Abdulla Qahhor hamda Jek Londonning yozuvchilik mahorati ochib beriladi. Bunda Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyalari misolida.

Kalit so'zlar: Jamiyat, shukronalik, hayotga muhabbat, ishonch, bemor xalq, sodda tillilik, obraz, g'oya, ziddiyat, kulminatsiya, mahorat, badiiy taffakur, ijtimoiy muhit.

Abstract. This article explores the literary craftsmanship of two accomplished writers from different nations—Abdulla Qahhor and Jack London—in the art of character creation, specifically through an analysis of Abdulla Qahhor's story "The Patient" and Jack London's story "Love of Life."

Keywords: Society, gratitude, love of life, trust, sick people, simple language, image, idea, conflict, peak, skill, artistic thought, social environment.

Аннотация. В данной статье рассматривается литературное мастерство двух выдающихся писателей из разных стран — Абдуллы Каххара и Джека Лондона — в создании образов персонажей; анализ проводится на материале рассказа Абдуллы Каххара «Больной» и рассказа Джека Лондона «Любовь к жизни».

Ключевые слова: Общество, благодарность, любовь к жизни, доверие, больные люди, простой язык, образ, идея, конфликт, вершина, мастерство, художественная мысль, социальная среда.

Kirish

Ikki xalq yozuvchilari ya'ni Abdulla Qahhor va Jek Londonning ijodkor shaxsi yozuvchi obrazini gavdalanitirishdagi umumiy o'xshashliklari, mutanosibliklarini tahlil etish bilan bir qatorda, adiblar tabiatidan, tajribasidan obrazlarga ko'chirilgan o'ziga xoslik, individual mahurat chizgilarini o'rganish, tahlil qilishdan iborat.

Har ikki asar bosh qahramonlari Bill va Sotib oldi yozuvchi obrazida gavdalanitirilgan bo'lib unda adiblarning obraz yaratishdagi umumiylikni ko'rish mumkin, ya'ni mualliflar bosh qahramonlarini yolg'izlikda, og'ir turmush sharoitlarida haqiqiy insoniylik sinovidan o'tkazadi. Shaxsiy intilishlar qanday fojiaiy ahvolga olib borishi mumkinligini real tasvirlarda ko'rsatiladi.

Asosiy qism

Qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqdaki, bu izlanishlar mevasi sifatida ko'plab ilmiy maqolalar, monografiyalar chop etilmoqda. Xususan, Abdulla Qahhor va Jek London asarlari ham qiyosiy planda ko'plab olimlar tomonidan o'rganildi va hozir ham izlanishlar olib borilmoqda.

Ana shu ilmiy izlanishlarga o'z hissamizni qo'shish maqsadida ikki adibning hikoyalarida uchraydigan o'ziga xos bo'lgan jihatlarni, ayrim o'xshash va farqli taraflarni qolaversa, ba'zi hikoyalaridagi muhim qismlarni badiiy mezonlar nuqtayi nazaridan tahlilga tortamiz. Abdulla Qahhor hamda Jek London asarlari ko'plab adabiyotshunos olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xususan, Abdulla Qahhor ijodi Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov tomonidan o'rganilgan bo'lsa, amerikalik adib ijodi esa Charmeyn London, Djoan London, Irving Stoun, Frederik Xoffman, Karl Linn kabi olimlarning ilmiy ishlari uchun obyekt vazifasini bajargan. Lekin bizni tadqiqotimiz olimlarning izlanishlaridan farqli o'laroq adiblarning hikoyalaridagi o'ziga xos, o'xshash hamda farqli jihatlarni tahlil qiladi

O'zbek hamda Amerika adabiyotidagi hikoya janrida gap ketganda hayolimizga beixtiyor keladigan yozuvchilar shubhasiz Abdulla Qahhor va Jek Londondir. Qisman bir davrda yashagan bo'lishlariga qaramay kamdan kam holatlarda ular zamondosh hisoblanadi. Ulardagi turlicha ijtimoiy muhit, din hamda axloqiy qadriyatlar, ular ijodida ayrim o'ziga xosliklar, o'xshashliklar va farqli jihatlarni shakllanishida asosiy omil vazifasini bajargan. Ushbu o'ziga xosliklar ulardagi adabiy yo'nalishlarida, tanlagan mavzularida, yaratgan obrazlarida, asarlaridagi ilgari surgan g'oyalarida namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Abdulla Qahhor va Jek London, o'z davrlarining eng yetakchi yozuvchilari sifatida, o'z asarlarida insoniyatni o'rganishga, ijtimoiy va psixologik masalalarni ko'rsatishga katta e'tibor qaratgan. Qahhorning asarlari o'zbek qishloq hayotini va uning ichki kurashlarini tasvirlar ekan, Jek Londonning hikoyalari odamlarning tabiat bilan kurashlari va omon qolish intilishlarini yoritadi. Bu ikki yozuvchi o'rtasidagi asosiy farqlarni va o'xshashliklarni tushunish uchun Ularning asarlaridagi o'ziga xos jihatlarni tahlil qilish zarur. Ikki turli xil adabiyot vakillari sanalgan, turlicha dinlarga e'tiqod qiluvchi, bir birlaridan farqli jamiyatlardan yetishib chiqqan yozuvchilarning asarlarini qiyosiy nuqtaiy nazardan o'rganishda, garchand ular ayni bir janrda ijod qilgan bo'lsalar ham, o'ziga xos, o'xshash hamda farqli jihatlarni yetarlicha uchratish mumkin.

Adabiy yo'nalishlar: Abdulla Qahhor hikoyalarida realism va sotsializmga asoslangan yo'nalishdan foydalangan bir paytda Jek London naturalizm va sotsializmdan foydalanadi.

1. **Asosiy mazvzular:** Abdulla Qahhor o'zbek xalqining ijtimoiy muammolari, tazyiqlar, milliy qadriyatlarni mavzu darajasiga ko'targan bo'lsa, Jek London amerika adabiyoti vakili tabiat, har qanday qiyin holatlarda ham insonning o'zini o'zi yenga olishi, hayot uchun kurashi mavzu sifatida tanlanadi.

2. **Qahramonlar:** Abdulla Qahhorning hikoyalaridagi qahramonlar ko'p hollarda o'zi yashagan muhitda yetishib chiqqan personajlar – oddiy odamlar, ishchilar, dehqonlar, sodda o'zbek ayollaridan iborat bo'lsa Jek Londonning qahramonlari o'ziga xos holda oltin izlovchilar, ovchilar, sarguzasht ixlosmandlari va ko'p hollarda hayvonlardan iborat bo'lganini kuzatish mumkin.[1]

Quyida adiblarimiz hikoyalaridagi ayrim mushtarak sanalgan jihatlarini ko'rib o'tamiz:

Insonning ichki dunyosining ochib berilishi: Har ikkala yozuvchilarimiz hikoyalaridagi qahramonlar ichki dunyosini, ichki kurashlarini, ulardagi ruhiy holatlarni, psixologik iztiroblarlarini yuksak mahurat bilan tasvirlaydilar.

1. **Gumanizm:** Insonparvarlik g'oyalari har ikki adibimizning hikoyalarida ham asosiy o'rinda turadi. Yozuvchilar hikoyalarida insonning har tarafdin yaxshilanishiga, ma'naviy o'sishiga urg'u qaratiladilar.

2. **Inson va jamiyat:** Abdulla Qahhor ham Jek London ham ijtimoiy masalalarga qaratilgan bo'lib ularning qahramonlari har doim jamiyatda o'z o'rinlarini topish.

3. **Realizm:** Ikkala adiblarimiz ham o'z hikoyalarida voqealikni ham obrazlarni ham realistic uslubda ya'ni boricha tasvirlaydilar.

4. **Ijtimoiy tengsizlik:** Adiblarning har ikkisi ham hikoyalarida ijtimoiy tengsizlikni ko'rsatishga urinishadi, hikoyalardagi qahramonlar muntazam ravishda hayotdagi nohaqliklarga qarshi kurashishadi.

Har qanday adabiyotlarning yoki ularning namoyondalarini qiyosiy jihatdan o'rganib, o'ziga xosliklari tahlilga tortilganda ular o'rtasidagi asosiy farqlar yuzaga keladi. Yuqoridagi tahlildan so'ng adiblarimizning hikoyalarida ko'zga tashklanadigan farqli jihatlarni tadqiq qilamiz.

1. **Hayotning shavqatsizligi:** Jek London asrlarida, masalan, "Hayotga muhabbat" tabiat va tashqi sharoitlarning inson hayotidagi shavqatsizliklar ko'proq ko'rsatilgan bo'lsa, Abdulla Qahhor jamiyat va insonlarning ichki muammolariga e'tibor beradi.[2]

2. **Tabiatning roli:** Jek London hikoyalarida tabiat ko'proq tashqi kuch sifatida qahramonlar uchun sinov bo'lib xizmat qiladi, Abdulla Qahhor esa jamiyatdagi insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tasvirlaydi.

3. **Jismoniy va ma'naviy kurash:** Lek Londonning hikoyalaridagi qahramonlari ko'proq jismoniy kurashlar orqali o'z hayotini saqlab qolishadi, Abdulla Qahhor esa ko'proq ma'naviy, ruhiy kurashni tasvirlaydi.

4. **Sinfiy qarama – qarshilik:** Jek London asarlarida sinfiy kurashlar va sinfiy tengsizliklar ko'proq tasvirlanadi, Abdulla Qahhor asarlarida esa jamiyatning axloqiy va ma'naviy tomonlariga e'tibor qaratiladi.

5. **Tabiatga qarshi kurash:** Jek Londonning hikoyalarida tabiatning g'alabasi ko'proq aks ettiriladi, qahramonlar tabiiy kuchlar bilan kurashadilar, Abdulla Qahhor esa odamlar o'rtasidagi munosabatlarni yoritadi.

Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi bilan Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyalarida insonning og'ir sinovlarga duch kelishi tasvirlanadi. Ammo Ularning mazmuni va g'oyasida farqlar ham mavjud. Bu asarlarning o'xshash jihatlari har ikkala asarda ham bosh qahramon og'ir hayot sinovlarini boshdan kechiradi. Insonning yashash uchun kurashi asosiy mavzu hisoblanadi. Asarlar o'quvchini sabr-toqat, matonat va hayotning qadrini anglashga undaydi.

Adiblarning farqli jihatlari: Abdulla Qahhor asarlarida syujet ko'pinch ixcham, lo'nda va hayotiy epizodlarga asoslanadi. Uning hikoyalarida syujet Keskin burilishlarga boy bo'lmasligi mumkin, ammo har bir voqea ortida chuqur ijtimoiy va axloqiy ma'no yashiringan bo'ladi. "Bemor" hikoyasida syujet oddiygina biro damning kasalligi atrofida qurilgandek tuyuladi.

Lekin syujet rivoji davomida aslida jamiyatdagi loqaydlik, soxta hamdardlik va insoniy munosabatlarning yuzakiligi fosh etiladi. Hikoyada qashshoqlik, kasallik, ilmsizlik va ijtimoiy tengsizlik muammolari yoritiladi. Hikoya kulminatsiyasi bemorning holati emas, balki atrofdagilarning ma'naviy qashshoqligi namoyon bo'ladi. Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasida esa syujet juda sodda ko'rinadi : och qolgan, holdan toygan odamning omom qolishi uchun kurashi. Biroq aynan shu sodds syujet ichida murakkab ichki ziddiyatlar yashiringan.

Syujetning boshida qahramon jismonan va ruhan qudratli bo'lib ko'rinsa rivojlanish jarayonida u asta – sekin o'zining ojizligini tan olishga majbur bo'ladi. Insonning yovvoyi tabiat bilan yolg'iz kurashi va yashashga bo'lgan kuchli intilish tasvirlanadi.

Kulminatsiya nuqtasi – inson va tabiat o'rtasidagi to'qnashuv eng keskin holatga yetgan.

Hikoya so'ngida esa tirik qolish instinkti orqali insonning hayotga bo'lgan cheksiz muhabbatini g'oyaviy jihatdan ochib beradi.

“Bemor” asari fojiali yakun topadi, “Hayotga muhabbat” esa umid va g‘alaba bilan tugaydi. Abdulla Qahhor jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni tanqid qilsa, Jek London insonning iroda kuchi va yashash istagini ulug‘laydi.

Xulosa qilib aytganda, ikki adiblarimiz hikoyalaridagi o‘xshashliklar va farqli jihatlarning ko‘rdik. Bular ular yashab ijod qilgan jamiyatlar, ular e‘tiqod qilgan din, va ulardagi axloqiy mezonlar sababidan vujudga kelganligi ma‘lum bo‘ldi. Ikki hikoya ham inson hayotining qadr – qimmatini ko‘rsatadi.

“Bemor” hikoyasida ko‘proq jamiyatdagi adolatsizlik va nochorlikni ochib bersa, “Hayotga muhabbat” insonning matonati, irodasi va hayot uchun kurashini tarannun etadi.

Adiblarimiz qahramonlaridagi ayrim insoniy tushunchalar, masalan, sadoqat, do‘stlik, oilaga oid qarashlar. Amerika adabiyoti vakilining qahramonlaridagi ushbu tushunchalardan anchayin farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qahhor. Asarlar (Besh jildlik, Birinchi jild). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1987
2. Jek London. The call of the wild and White Fang. Signet Classics. 2010
3. Ozod Sharafiddinov. “Abdulla Qahhor”, T: Yosh gvardiya, 1988
4. Qobilova N.S “Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm”, diss.2018
5. Jo‘rayeva F.Y. Tipologik obrazlarning qiyosiy tahlili. Nom.Diss. Toshkent,2000